



Buxoro viloyatida

kichik tadbirdorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020–yil yanvar – sentabr

2020–yilning yanvar – sentabr kichik tadbirdorlikning YaHMdagi ulushi **76,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirdorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **16,7** birlikni tashkil qildi.

2020–yilning yanvar – sentabr oylarida **4340** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **14,8** foizga kam.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **1393** ta, sanoatda **814** ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligidagi **862** ta, yashash va ovqatlanishda **384** ta, qurilishda **276** ta tashkil etilgan.

2020–yil yanvar – sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da



Savdo
32,1 %



Sanoat
18,8 %



Qurilish
6,3 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
19,9 %



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar
8,8 %



Tashish va saqlash
4,2 %

Yanvar – sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'Ichov birligi	2019– y.	2020– y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	19253	23479	4226
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	5097	4340	-757
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	76,9	76,9	0
Sanoat	%	36,6	32,9	-3,7
Qishloq,o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,6	99,0	0,4
Investitsiya	%	56,5	44,6	-11,9
Qurilish	%	87,9	81,9	-6,0
Savdo	%	86,1	82,7	-3,4
Xizmatlar	%	70,5	68,1	-2,4
Yuk tashish	%	93,4	90,2	-3,2
Yuk aylanmasi	%	86,3	86,5	0,2
Yo'lovchi tashish	%	96,1	97,3	0,5
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,9	97,4	1,2
Eksport	%	66,2	42,7	-23,5
Import	%	50,2	52,3	2,1



2020– yilning yanvar – sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020– yilning yanvar – sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha eng ko'pi Buxoro shahrida – 915 ta, G'ijduvon tumanida – 461 ta, Buxoro tumanida – 430 ta, Romitan tumanida – 405 ta, Kogon tumanida – 304 ta va Jondor tumanida 282 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida – 156 tani tashkil etgan.

Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019– yil yanvar – sentabr	2020– yil yanvar – sentabr	(+/-)
Buxoro viloyati	5097	4340	-757
<i>shaharlar:</i>			
Buxoro	1532	915	-617
Kogon	223	233	10
<i>tumanlar:</i>			
Olot	172	180	8
Buxoro	355	430	75
Vobkent	237	279	42
G'ijduvon	583	461	-122
Kogon	215	304	89
Qorako'l	222	199	-23
Qorovulbozor	107	156	49
Peshku	272	273	1
Romitan	498	405	-93
Jondor	376	282	-94
Shofirkon	305	223	-82



**2020– yil yanvar – sentabr holatiga ko'ra yangi
tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning
tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**




2020- yilning yanvar - sentabr oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Buxoro shahri - 21,1 %, G'ijduvon tumani -10,6 %, Buxoro tumani - 9,9 %, Romitan tumani - 9,3 %, Kogon tumani - 7,0 %, Jondor tumani – 6,5 % Vobkent tumani – 6,4 %, Peshku tumani – 6,3 %, va Qorovulbozor tumani – 3,6 % eng past ko'rsatkichni tashkil etmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar- sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	(+;-)
Jami	5097	4340	-757
Qishloq, o'rmon va baliqchlik xo'jaligi	402	862	460
Sanoat	1074	814	-260
Qurilish	528	276	-252
Savdo	1791	1393	-398
Tashish va saqlash	235	181	-54
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	576	384	-192
Axborot va aloqa	39	39	0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	61	77	16
Boshqa faoliyat turlari	391	314	-77

Ma'lumot uchun: 2020– yilning yanvar – sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi (+;-)
Buxoro sh.	1532	915	-617
G'ijduvon	583	461	-122
Buxoro	355	430	75
Romitan	498	405	-93
Kogon	215	304	89
Jondor	376	282	-94
Vobkent	237	279	42
Peshku	272	273	1
Kogon sh.	223	233	10

2020– yilning yanvar – sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Buxoro shahri - 915 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda





Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - sentabr holatiga ko'ra*




2020– yilning yanvar–sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 42,7 birlik, Buxoro shahrida 26,5 birlik, Kogon tumanida 25,0 birlik. Romitan tumanida 20,1 birlik, Buxoro tumanida 18,8 birlik, Peshku tumanlarida 16,6 birlikni tashkil etgan. Qorako'l tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 9,2 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020– yilning yanvar – sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020– yilning yanvar – sentabr oylarida tuman va shaharlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni* (har 1000 aholiga, birlikda)



2020– yilning yanvar – sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p Qorovulbozor tumanida 42,7 birlik, Buxoro shahar 26,5 birlik, Kogon tumanida 25,0 birlik, Romitan tumanida 20,1 birlik, Buxoro tumanida 18,8 birlik, Peshku tumanida 16,6 birlik. Jondor tumanida esa bu ko‘rsatkich 16,0 birlikni tashkil etdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shtigan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




- **Eng yuqori ko'rsatkich**
Qorovulbozor tumani - **42,7** birlik;
- **O'rtacha ko'rsatkich**
Jondor tumani - **16,0** birlik;
- **Eng past ko'rsatkich**
Qorako'l tumani - **9,2** birlik;

Bundan ko'rinish turibdiki, Qorovulbozor tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Qorako'l tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.


Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini dinamikasi, yanvar - sentabr holatiga ko'ra, % da

2020- yilning yanvar – sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 76,9 % ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar – sentabrida 76,9 %).





Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)





2020– yilning yanvar – sentabr oylarida kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Buxoro viloyati	32,9	81,9	68,1	44,6
<i>shaharlar:</i>				
Buxoro sh.	58,1	89,5	50,2	48,3
Kogon sh.	45,7	43,6	91,0	67,3
<i>tumanlar:</i>				
Olot	47,5	78,2	95,1	27,6
Buxoro	66,8	84,9	97,1	80,1
Vobkent	100,0	100,0	91,4	91,5
G'ijduvon	69,0	98,0	94,9	57,4
Kogon	98,5	73,7	85,9	84,9
Qorako'l	50,2	86,4	95,3	60,1
Qorovulbozor	0,9	19,7	50,7	70,4
Peshku	56,0	100,0	85,0	84,8
Romitan	58,4	85,6	91,9	10,6
Jondor	56,0	100,0	93,0	91,1
Shofirkon	86,9	91,8	95,7	88,0

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Vobkent (100,0 %),
Kogon (98,5 %),
Shofirkon (86,9 %),
G'ijduvon (69,0 %)
Buxoro (66,8 %)va
Romitan (58,4 %)
tumanlarida.


Qurilishda-

Vobkent (100,0 %),
Peshku (100,0 %),
Jondor (100,0 %),
G'ijduvon (98,0 %),
Shofirkon (91,8 %),
tumanlarida va
Buxoro sh. (89,5 %)

Xizmatlarda-


Buxoro (97,1 %),
Shofirkon (95,7 %),
Qorako'l (95,3 %),
Olot (95,1 %),
G'ijduvon (94,9 %)
Romitan (91,9 %)
tumanlarida.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida

- 
- 1  Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3974,7 mlrd. soʻnni (jami sanoat ishlab chiqarishning 32,9% ni tashkil qildi ;
 - 2  3856,6 mlrd. soʻmlik investitsiyalar (umumiyligi 44,6 % i) oʻzlashtirildi va 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 85,0 % ni tashkil qildi;
 - 3  3294,5 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi 81,9 % i) bajarildi va 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 97,6 % ni tashkil qildi;
 - 4  4667,8 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatib (viloyat jami xizmatlar hajmining 68,1 % i), 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 99,6 % ni tashkil qildi;
 - 5  chakana savdo tovar aylanmasi umumiyligi 82,7 % i yoki 6870,2 mlrd. soʻnni (2019-yanvar-sentabr oylariga nisbatan 96,0 % ni tashkil qildi) ;
 - 6  71,3 mln. AQSh dollarasi (umumiyligi 42,7 % i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi;
 - 7  Avtomobil transporti yuk aylanmasining 0,4 % ga (viloyatda jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 86,5 % i) pasayishi kuzatildi ;
 - 8  Yoʻlovchi aylanmasining esa 9,8 % ga (umumiyligi yoʻlovchi aylanmasining 97,4 % i) pasayishi kuzatildi;




Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020– yil yanvar -sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Shofirkon tumanida – 100,0 %, Vobkent tumanida 100,0 %, Buxoro tumanida – 99,6 %, Romitan tumanida – 97,9 %, Kogon tumanida – 95,6 %, Peshku tumanida – 94,0 %, Jondor tumanida – 58,5 %, Kogon sh. – 54,2 % ni, eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida – 10,1 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020– yil yanvar -sentabr oylarida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Shofirkon tumanida –100,0 %, Vobkent tumanida - 97,1 %, G'ijduvon tumanida – 95,3 %, Kogon tumanida – 93,7 %, Jondor tumanida – 91,3 %, Buxoro tumanida-89,7 % ni va eng past ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida - 2,5 % ni tashkil etdi.



2020– yilning yanvar – sentabr oylarida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi





Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (834,8 mlrd. so'm), Kogon tumani (562,4 mlrd. so'm), G'ijduvon tumani (544,0 mlrd. so'm), Buxoro tumanida (314,8 mlrd. so'm) va Shofirkon (283,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qorovulbozor tumanida (56,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






2020– yil yanvar – sentabr holatiga ko‘ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo‘yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Vobkent tumani (100,0%), Kogon tumani (98,5%), Shofirkon tumani (86,9%), Gijduvon tumani (69,0%), Buxoro tumani (66,8%), Romitan tumani (58,4%), Buxoro shahri (58,1%), Peshku tumani (56,0%) va Jondor tumanlari (56,0%) ni tashkil etdi. Qorovulbozor tumanida (0,9%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo‘lib qolmoqda.




2020 – yilning yanvar – sentabr oylarida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o’sish sur’ati



Tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri-1720,6 mlrd. so‘m, (2019 yilning yanvar – sentabrga nisbatan o’sish sur’ati 88,7%), G’ijduvon tumani -1393,8 mlrd. so‘m (109,6%), Qorako'l tumani-636,7 mlrd.so‘m (92,5%), Jondor tumani-494,5 mlrd so‘m (99,9%) va Romitan tumani- 481,9 (91,2%) hissasiga to‘g‘ri keladi.



2020– yilning yanvar – sentabr oylarida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o’sish sur’ati



Tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Buxoro shahri - 862,9 mlrd. so‘m (2019 yilning yanvar – sentabrga nisbatan o’sish sur’ati 96,5%), G‘ijduvon tumani 389,2 mlrd. so‘m (103,2 %), Buxoro tumani 298,5 mlrd. so‘m (105,1 %), Jondor tumani 284,2 mlrd. so‘m (108,1 %) Romitan tumani 242,8 mlrd. so‘m (99,1%) hamda Olot tumani 220,5 mlrd. so‘m (110,5 %) qayd etildi.





2020– yilning yanvar – sentabr oylarida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o’sish sur’ati




Tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p xizmatlar hajmi Buxoro shahri – 1945,1 mlrd. so‘m (2019- yilning yanvar – sentabrga nisbatan o’sish sur’ati 95,7 %), G’ijduvon tumani 645,7 mlrd. so‘m (104,8 %), Buxoro tumani 274,0 mlrd. so‘m (103,7 %), Vobkent tumani 225,5 mlrd. so‘m (101,2%), Romitan tumani 219,2 mlrd. so‘m (100,5 %) va Qorako'l tumani 207,0 mlrd. so‘m (100,4 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020– yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **973** ta respondentlar ishtirok etdi.


2020– yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 6,0 % (58 ta.), sanoatda – 14,6 % (142 ta), qurilishda – 12,7 % (124 ta), savdoda – 36,3% (353 ta), xizmatlar sohasida – 30,4 % (296 ta) ni tashkil etdi.

* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

**2020– yil III chorak bo‘yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi
bo‘lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020– yil III chorak bo‘yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo‘lgan
kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020– yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra o‘tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat qurilish sohasi 22,2 punktga, savdo sohasi 20,4 punktga qishloq, o‘rmon va baliqchlik xojaligida 19,0 punktga oshdi, xizmatlar sohasida 17,2 punktga va sanoat sohasida 14,9 punktga o‘sishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida o‘tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo‘yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o‘tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, xizmatlar sohasi 15,0 punktga, sanoat sohasida 14,7 punktga, qurilish sohasi 7,8 punktga, savdo sohasi 2,8 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko‘payishi kuzatildi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo‘lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019 – 2020– yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 – yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o‘tgan yil bilan taqqoslaganda, sanoat korxonalari 7,9 punktga, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 2,4 punktga, xizmatlar sohasi 1,4 punktga yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o‘zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o‘sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 4,4 punktga, sanoat sohasida 2,1punktga, qurilishda 0,7punktga va savdo sohasida 0,6 punktga o‘sdi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo‘lgan korxonalarning 2019 – 2020 – yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020– yilning III choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **106** ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 19 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 17,9 %), qurilish – 7 ta (6,6 %), savdo – 35 ta (33,0 %) xizmatlar – 24 ta (22,7 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 21 ta (19,8 %).

2020– yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






2020– yil III chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2020– yil III chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020–yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi qurilish sohasi 16,2 punktga, savdo sohasi 8,8 punktga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2,5 punktga o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda barcha faoliyat turlari bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.




2019 – 2020–yillar III chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko‘ra, 2020–yilning III choragini o‘tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari bo‘yicha pasaygan.

Shuningdek, o‘tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagisi iqtisodiy vaziyat o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi qurilish sohasida 58,1 punktga, sanoat sohasida 24,9 punktga, savdo korxonalarida 24,6 punktga va xizmatlar sohasida 10,3 punktga ko‘paygani kuzatildi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 4,8 punktga va xizmatlar sohasida 4,2 punktga ko‘paygani kuzatildi.



2019 – 2020– yil III choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da





Buxoro viloyat ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish
statistikasi bo'limi.
tel (065) 223-81-96